



“AVAZXON” DOSTONI VARIANTLARI XUSUSIDA

Abdullayev Xotamjon Xamrayevich,
Ajiniyoz nomidagi NDPI
o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari sirasiga kiruvchi “Avazxon” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq folkloridagi versiyalari o‘rtasida qiyosiy aspektida tadqiqot olib borildi. Jumladan, dostonning ikkala versiyasidagi obrazlar tizimi hamda sujet va motivlari tadqiqot predmeti sifatida tanlab olindi.*

***Kalit so‘zlar:** doston, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, sujet, motiv, obraz, obrazlar tizimi, baxshi, versiya, variant.*

Turkiy xalqlar o‘zining qadimiy boy tarixi bilan umumjahon madaniyatida munosib o‘rin tutgan folklor namunalariga ega. Mazkur og‘zaki ijod namunasida asrlar qa‘ridan yaratilib, takomillashib, kuylab kelingan eposlar xalq tarixi, dunyoqarashi, e‘tiqodi, orzu-ideallarini, maishiy turmushi va urf-odatlarini keng ko‘lamda badiiy ifoda etgan dostonlar alohida o‘rin tutadi.

Mazkur dostonlar qatlamida “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari motiv va sujetining mifologik xarakterda ekanligi, obraz va qahramonlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Maqolaga aynan shu turkumga kiruvchi “Avazxon” dostonining o‘zbekcha va qoraqalpoqcha versiyalari obyekt qilib tanlandi. Maqolada eposdagi obraz va obraz turlari singari masalalar qiyosiy-tipologik aspektida tahlilga tortildi. Bunda asosan, “Avazxon” dostonining o‘zbekcha va baxshi Allayar Sadimov tomonidan ijro etilgan, qoraqalpoq folklorining 30-tomida berilgan “Awezxon” dostoni qiyosiy o‘rganildi.

Ma‘lumki, dostonlarni tadqiq qilishda ularning paydo bo‘lishi, yaratilishidagi motiv va sujetlardan so‘ng obrazlari, obraz turlari va ularning genezisi, doston poetikasidagi epik va estetik vazifalari singari muammolarni yoritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur doston variantlaridagi obraz va qahramonlar asosan, bir xil vazifa bajarsalarda, ya‘ni ijobiy obrazlar ezgulikka, salbiy obrazlar yozuvlikka xizmat qilsalarda, odatda, ularning faoliyati janr talabiga ko‘ra turlicha qamrovda va miqyosda namoyon bo‘ladi. Avvalo, har ikkala variantida obrazlar an‘anaga ko‘ra bosh qahramon taqdiri bilan bog‘liq. Ijobiy va salbiy guruhlar hamda yordamchi obrazlarga bo‘linadi.

Dostonning qoraqalpoq variantida baxshi tilidan Go‘ro‘g‘lining bir yuz o‘n bir yoshigacha bo‘lgan voqealar retrospektiv usulda bayon qilinadi. Bu tasvirda Chamlibelning Aqliqxon, Jig‘alixon va Go‘ro‘g‘li nomlari xon tarzida keltiriladi. Aqliqxon va Jig‘alixonlar olamdan o‘tgan. Dostondagi epik voqelik markazida Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Hasanxon, Yunus pari, Misqol pari, Saxiy merosxo‘r, Ahmad



Sardor, Bo'tako'z, qiraq yigit, oqsoqollar, Yortiboy oqsol, Xunxor podsho, Gulayim, jallodlar, Boloyin, savdogar, Tulek botir singari obraz va personajlar turadi. Doston poetikasida Go'ro'g'li va Avazxon(ijobiy), hamda Xunxor shohla(salbiy) qahramon tarzida namoyon bo'ladi. Matnda syuetni harakatga keltiruvchi motiv bir nechta. Bular Go'ro'g'lining farzandsizligi(Avazxonning o'zini begona bilishi), Avazxonning sharob to'la kosaning tushib ketishi, ov singari motivlar hisoblanadi. Go'ro'g'lining farzandsizligi motivi ota va farzand o'rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirsa, sharob to'la piyola(sinov) va ov motivlari borasida bevosita Avazxonning kelajak taqdiri faoliyati bilan chambarchas bog'lanadi. Doston turkumlaridagi bosh syuketning dinamik taraqqiyoti va uzviyligi kuzatib qaralsa, Go'ro'g'liga Xizr va chiltonlar tomonidan berilgan taqdir yoziqlariga hamohang keladi. Go'ro'g'li bir yuz o'n bir yoshda shunga mos markaziy sujet qahramoni u emas, balki Avazxon hisoblanadi.

Dostonning ikkala varianti ham prolog bilan boshlanadi. Prolog tasviri deyarli bir xil. O'zbekcha variantida Og'alibek, Jig'alibek va Go'ro'g'li xon obrazida kelsa, qoraqalpoqcha variantida Og'alibek o'rnida Aqliqxon obrazi keladi. Bundan tashqari o'zbekcha variantida Ko'hi Qof dan Misqol parini, Iram bog'idan Og'a Yunus parini, Hindistondan Gulnor parini, Vayangandan Hasanxonni olib kelgan bo'lsa, qoraqalpoqcha variantida Misqol parini – Hindistondan, Yunus parini - Ko'hi Qofdan, Gulnahr parini - Iram bog'idan olib keladi. Parilar obrazlari nomlari deyarli bir xil. Faqat Gulnor obrazi nomi Gulnahr tarzida o'zgarib kelgan. Parilar olib kelgan yurt nomlari ham o'rin almashib kelgan. Hasanxon o'zbekcha variantida Vayangandan olib kelingan bo'lsa, qoraqalpoqcha variantida Isfaxon shahridan olib kelinganligi bayon qilib o'tiladi.

Dostonning o'zbekcha varianti Go'ro'g'lining Xunxonlik baxshidan Avazxonning tarifini eshitishi voqeasi bilan boshlanadi. Bu voqea Go'ro'g'li va baxshi o'rtasidagi savol-javoblar qoraqalpoqcha variantida keltirilmagan. Chunki, qoraqalpoqcha variantidagi sujet voqealari Avazxonning Xunxordan olib kelingandan keyingi hayoti bilan bog'liq tasvirlanadi. O'zbekcha variantini esa aynan Avazxonning Chamlibelda ovoza bo'lishi, Go'ro'g'lining Avazxonni izlab yo'lga o'tlanishi, Asqar tog'ida Xizr Ilyos, G'ovsul-G'iyos, o'n bir imom va qirq chiltonlar bilan uchrashuvi, ulardan fотиha olishi, cho'ponlar bilan suhbat, Xunxor yurtiga Qo'ng'irboy chopon bo'lib borishi, Bulduruq qassobga hiyla(pirlar maslahati bilan) ishlatishi, hiyla bilan Avazxonni olib qochishi, Xunxor podshohining 10-12 ming qo'shini bilan Go'ro'g'lining yolg'iz jang qilib ularni yengishi, Bektosh arab bilan olishuvi va uni yengishi, Go'ro'g'lining sharob ichib hiyla bilan qo'lga tushishi,



Bektosh arab bilan do‘st tutinishi, Avazxonni olib yurtiga qaytishi singari sujet xalqalari tashkil etadi.

Dostonning o‘zbekcha variantida epik bosh qahramon Go‘ro‘g‘lining o‘zi. Barcha sujet xalqalari Go‘ro‘g‘li obrazi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu variantda obrazlar soni ancha ko‘p. Dostonda Og‘alibek, Jig‘alibek, Go‘ro‘g‘li, Xoldor mahram, Misqol pari, Yunus pari, Gulnor pari, Hasanxon, baxshi, qirq yigit, Xizr Ilyos, o‘n bir imom, qirq chilton, cho‘ponlar, Gambik cho‘pon, Bulduruq qassob, Guloyim, Qo‘ng‘irboy, Avazxon, Boloyim, Xunxorshoh, Kosaman sardor, Sarvinoz, Kengash arab, Gulnoz, Do‘saman singari qahramon va personajlar harakat qiladi.

Dostonning o‘zbekcha variantidagi obrazlar	Ikkala variantida ham mavjud obrazlar	Dostonning qoraqalpoqcha variantida mavjud obrazlar
Og‘alibek, Jig‘alibek, Go‘ro‘g‘li, Xoldor mahram, Misqol pari, Yunus pari, Gulnor pari, Hasanxon, baxshi, Xizr Ilyos, o‘n bir imom, qirq chilton, cho‘ponlar, Bulduruq qassob, Guloyim, Qo‘ng‘irboy, Avazxon, Boloyim, Xunxorshoh, Kosaman sardor, Sarvinoz, Gulnoz, Do‘saman, Bektosh arab	Jig‘alixon, Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Hasanxon, Misqol pari, Yunus pari, Gulnor pari(Gulnahr pari), Guloyim, Boloyim, Xunxorshoh	Aqliqxon, Jig‘alixon, Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Hasanxon, Misqol pari, Yunus pari, Gulnahr pari, Saxiy merosxo‘r, Ahmad sardor, Bo‘tako‘z, qirq yigit, oqsoqollar, Yortiboy oqsoqol, Xunxor poshsho, Guloyim, jallodlar, Boloyim, savdogar, Tulek botir

Homiy obrazi – “eposda qahramonni har qanday sharoitda, har jihatdan qo‘llab-quvvatlab, yordam beruvchi g‘ayritabiiy qudratga ega kuch”¹.

Dostonning o‘zbekcha varianti matnida Go‘ro‘g‘liga homiy bo‘lgan Xizr Ilyos, o‘n bir imom va qirq chilton obrazlari uchraydi. Bundan ko‘rinadiki, homiylar obrazi(motivi) dostonning versiya va variantlari o‘rtasida o‘zaro kommunikatsion munosabatni saqlab turuvchi vosita bo‘lsa, ajab emas. Folklorshunos olim Shomirza Turdimov yuqorida qayd etilgan tadqiqotida o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida yer asosan, Xizrga epitet sifatida keladi. Xizr va boshqa homiy ruhlar umumlashtirilib aytilsa, “Eran”, “G‘oyib Eran” atamaları ishlatiladi. Demak, “eran” so‘zi sof turkiy asosli bo‘lib, “homiy ruh” ma’nosiga ega.

Pari obrazi – dostonda Misqol pari, Yunus pari va Gulnor(Gulnahr) pari obrazlari bo‘lib, ular Go‘ro‘g‘lining umr yo‘ldoshlari, ya’ni, homiylar epik qahramonga ato etgan pari qizlardir. Ikkala matnda ham parilar obrazining insoniy

¹ Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li dostonlarining genezisi va tadjriij bosqichlari. Fan, Toshkent, 2011, 40-bet



hislatlari yanada takomillashgan tarzda namoyon bo‘lib boradi. O‘zbek folklorshunosligida pari obrazi yuzasidan maxsus ilmiy izlanishlar ham olib borilgan².

Yuqoridagi fikr-mulohazalar va xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ikkala matndagi obrazlarni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. Sujet markazidagi asosiy personajlar.
2. Homiy obrazlar.
3. Raqib obrazlari.
4. Bosh qahramonga yordamchi obrazlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: 2002.
2. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tarjimaiy bosqichlari. “Fan” nashriyoti –T.: 2011.
3. Qayumov O. O'zbek folklorida pari obrazi. fil. fan. nomzodi diss. avtoreferat. T., 1999.
4. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari. “Avazxon” dostoni. 4 jildlik. “Yozuvchi”, Toshkent, 1997.
5. Qaraqalpaq folklori. “Awezxon” dostoni. 27-42 tomlar. “Ilim”, Nokis, 2012.

²Qayumov O. O'zbek folklorida pari obrazi. fil. fan. nomzodi diss. avtoreferat. T., 1999.